

SAN'AT TURI SIFATIDA KASTYUMLARNI MODELLASHTIRISH TAHLILI

M25-15 guruh magistranti M. Sh. Rashidova
Ilmiy raxbar Dots. X. M. Yunusxadjueva

Ushbu maqolada kostyum insonning didi, estetik ko'rinishini belgilashi, u yordamida jalb etish yoki urg'u berish, bo'y va qomatning muttanosibligini o'zgartirish, qomatning kamchiliklarini berkitish yoki to'ldirish mumkinligi o'rganilgan. Shu bilan bir qatorda o'zbek xalq liboslarini modellashtirish ham o'rganilgan.


The concepts of the article shows how clothes are taste of a person, his aesthetic appearance, by the instrumentality of clothing, you can draw attention to a person or emphasize your style, you can change the fit of a figure, you can hide or supplement flaws. Along with this, also were studied upgrades of Uzbek folk clothes.

Boshqa amaliy san'at turlaridan farqli ravishda kostyum modellashtirish san'ati insonning tashqi qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Kostyumning tanlangan rangi yordamida odam tanasi rangiga optik jihatdan ta'sir qilish, ko'zlarning rangiga urg'u berish, sochlar va yuz ko'rinishiga o'zgacha qiyofa berish mumkin. Uning fe'l - atvori, dunyoqarashi, ma'naviyati va aqliy qobiliyati, tarbiya, hamda umumqadriyati aks etib turadi [1]. Kostyumni yaratish uchun, aynan inson qiyofasi bilan uyg'unlashuvchanligi aks etib turishida modelyer nafaqat odam qomatini mukammal bilishi, balki kostyumning plastika va proporsiyasi, kiyimning alohida detallarini moslashtirish, xalqning ijtimoiy talablarini bilish, ularning qiziqishlari, did va ehtiyojlaridan xabardor bo'lish, hamda moda olamida taklif etilayotgan kostyum namunalaridan unumli foydalana bilish talab etiladi. Modellashtirishni san'at turi sifatida qaralganda, u holda kostyum san'at asari deb hisoblanadi. Bunday tushuncha avvalgi zamonlar uchun jo'n va sodda bo'lsa, zamonaviy kostyum uchun bir muncha yangilash ko'rinadi. Hozirgi kunda modelyer - dizaynerlar tomonidan yaratilayotgan barcha kostyumlarni san'at asari deb bo'lmaydi. Ularga faqatgina san'at qonunlaridan foydalanganliklarini kiritish mumkin.

Go'zallikni asosiy qonuni - uyg'unlik. Kostyumning har bir detalida namoyon bo'lishi lozim. Shaklning o'zaro tuzilishi uyg'unlikni talab etadi. Uyg'unlik qonuniyati kostyumning shakl tuzilishi uning bajarilishi lozim bo'lgan vazifasi bilan mutanosib bo'lishi kerak. Kostyumning shakliga mos mato bo'lishi, kompozitsion yechimi esa, qo'yilgan topshiriq bilan mutanosibligi muhim sanaladi [2]. Eng asosiysi - kostyum inson qiyofasi bilan uyg'unlashishi, ichki dunyosi va tashqi qiyofasiga urg'u berishi lozim. Kostyumning shakllanishida dizayn ishlab chiqarish sanoatining ijodiy va loyihaviy metodi sifatida jadal rol o'ynaydi. Yangicha shartlar kostyum proyektlashga bo'lgan yangicha yondashuvni talab qiladi, ular „iste'mol - ishlab chiqarish - rassomi“ kabi tizimning vujudga kelishini talab etadi. Bunda modaga taalluqli barcha savollarga javob topish, kostyum shakllanishi, tuzilishining alohida xususiyatlari, buyumning sanoat ishlab chiqarilishida ijtimoiy ehtiyoj shartlari kabilarni o'z qamroviga oladi.

Odam va libos kabi o'zaro ta'sirga ega yangicha tushuncha insonning o'z - o'zini mukammallashtirish qiyofasini birinchi o'ringa qo'ya boshladi. Bu zamonaviy moda erkinlik nafasi kirganligida taklif etiluvchi turli obrazli uslublar, shakl, siluetlar, iste'molchi uchun ijodiy jarayonda tanlash erkinligi berilganligi sababli bevosita ishtirokchi bo'lishni imkoniyati beriladi. Shunda bir jarayonda, tanlash, sotib olish va libosni kiyish qiziqishga aylanadi. Bu o'z navbatida ijobiy taasurol uyg'otadi. Shu jumladan, hozirgi modelyerlar tomonidan taklif etilayotgan kostyum namunalari „rangsiz kunlar“ ga hayotiy ranglardan qo'shish bilan birgalikda quvonchni ham olib kirishmoqda. Shunday jadal sur'atlar bilan neotexnologik dizayn yordamida yorug'lik va rang, iforlar va tovush kabilarning dizayn loyihalari ishlab chiqilmoqda. Yorug'lik effektlari bilan boyitilgan liboslar, iforli va suyuq olmoslar bilan to'ldirilgan matolar odam tana harorati yoki yorug'lik ta'sirida rang o'zgartiruvchi kabilar yaratilgan, hattoki „ovoqli“ libos ham mavjud.

Etnografik uslubda modellashtirish. Libosni modellashtirishda milliy qadriyatlar alohida ahamiyatga ega. Milliy kostyum modelyer - dizaynerlarning ijodiy ilhom manbasi hisoblanadi.



O'zbek xalq liboslari sharqiy - osiyo uslubida tunikasimon bichimda, kompozitsion tuzilishi asosiy bo'lak va yengdan iborat. Asosiy bo'lak konstruktiv markazning butun maydonni egallaydi. U ikkita o'rtacha kenglik va to'rtta torroq kenglikdagi mato nuqtalaridan buklovda bichiladi. Matoning buklov qismi libosning yelka chizig'idan o'tadi. Yenglar esa huddi g'arbiy – osiyo bichimida bir necha ko'ndalang polotnolardan, yengning markaziy chizig'i yelka chizig'i darajasida va yengning torayishi esa uning uzunligi bo'ylab ketgan [3].

O'zbek xalq liboslari, modellashtirishning uchinchi prinsipi bo'yicha, ko'pqismlilik bilan konstruktiv bichimga ega. Bichimning elementlari - murakkab shakllilik, o'zining qiya va qayishqoq chiziqlari, uzluksiz ovallashgan konturlar, odam qomatini takrorlovchi chiziqlardan iborat.

Yirik elementlar - asosiy bo'lak, yon bo'laklar, yoqa, yenglardan iborat. Kostyum plastikasi to'g'ri bichimdan muloyim qomatni qaytaruvchi bichimlargacha o'zgarishi mumkin. Asosiy bo'lakning markaziy chizig'i yelka bukloviga perpendikular holatda bo'ladi. Asosiy bo'lakning yeng o'mizi uzunligi ko'krak balandligi sathigacha vertikal holatda tushgan bo'ladi, shundan so'ng diagonal bo'ylab pastgacha kengaytirish beriladi va qo'shimcha uchburchak bo'linma qo'yiladi.

Etnik uslub hozirgi zamonaviy liboslarga turli xalqlar kostyumlari bilan moslashib ulgardi. Hozirgi kunda milliy kostyumdan foydalanishning konsepsion ishlanmasi ikki xil yo'nalishda ketmoqda. Bir tarafdin dizaynerlar madaniy va ma'naviy an'analarning regional (hududiy) madaniyatidan qo'llanma sifatida qarashsa, ikkinchi tarafdin boshqa millatlarning madaniy qadriyatlarga ahamiyat berilmoqda. Bir necha madaniyat namunalarining birgalikda uyg'unlashuvi yangicha libosni yuzaga keltiradi, bunday liboslar an'anaviy yevropa va etnografik liboslardan farqlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bugungi kunda libos modellashtirishning dizaynerlik yondashuvi yetarlicha qulay, vazifaviy ishonchga ega, estetik yaxlitlikdagi, nafaqat iste'molchilarning ehtiyojini qondiruvchi, balki ularning kiyim javonini doimiy qarashdan o'zga qarashga aylantiruvchi liboslar yaratish kabi vazifalarni yuklaydi.

Adabiyotlar

1. Пармон Ф.М. Композиция костюма. Легпромбытиздат, 2002
2. Komilova X.X., Xamraeva N.K. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. Toshkent. 2011
3. Костюм народов Средней Азии (историко – этнографический очерк под. ред Сухаревой О. А) М. “Наука”, 1979